

HALIMA XUDOYBERDIYEVA SHE'RIYATIDA AYOL RUHIYATINI IFODALASHDA LIRIK KECHINMANING O'RNI

Nasiba Kurbanbayeva

Alisher Navoiy nomidagi TDO'TAU doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7088075>

Badiiy adabiyotning obykti inson va uning ichki hissiy-shuuriy dunyosini tasvir etishdir. Bu yo'ldagi badiiy talqinlar rang-barang poetik obrazlar, turfa ramziy-majoziy tasvirlar, xilma-xil timsollar talqini orqali ro'yobga chiqariladi. Asar badiiyligining asosiy shartlaridan biri unda tasvirlanayotgan voqea-hodisalarning aniq zamon va makonda yuz berishi, yashayotgan personajlarning hatti-harakatlari, ular orasidagi o'zaro munosabatlarning ishonarli tasvirlanishidir. Bu obrazlar rus adabiyotshunosi M.M.Baxtin ta'kidlaganidek, hamma vaqt aniq makon va zamon bilan bog'liq bo'ladi. Zamon va makon bir-biri bilan chambarchas bog'liq xolda namoyon bo'ladi, ular bir-birisiz yashay olmaydi. Chunki personajning vaqti, umri aniq bir joyda, ma'lum vaqt ichida o'tadi. Uning ber necha soatlik, kunlik yoki yillarda kechgan hayoti, uchrashuvlari, shodligi-yu qayg'usi belgilangan makon va masofa bilan bog'liq bo'ladi.

Ma'lumki, lirik turda voqea emas, his-tuyg'u va kechinmalar zamzamasi tasvir etiladi, lekin aynan o'sha kechinmalar ham qandaydir kichik-kichik voqealar silsilasida o'zining lirik maqomdagi tasvirini namoyon etadi:

Men seni kitobga yozdim-u...

Payt poylab kitobdan chiq, she'rim.

So'kilgan dillarni tik, she'rim,

Behuda o'rtanib yozdimmi?

Shoira shunchaki yozishni istamaydi, uning yozganlari "so'kilgan dillarni tik"ishini istaydi, qalblarga darmon bo'lishini xohlaydi. Axir "Behuda o'rtanib yozdimmi?"

Chiqaqol, kitobning qatin och,

Taysallab bo'lmagin arosat.

Bolaning ko'zida bo'l ishonch,

Ulg'aygach odamda farosat.

Bolaning ko'zidagi ishonch, odamdagi farosat kabi hayotiy voqelik parchalari bir umumiy mazmunning ro'yobga chiqishi uchun xizmat qilmoqda, ya'ni lirik qahramonning ko'ngil kechinmalari obrazli ifoda etilgan. Halima Xudoyberdiyeva she'riyatida ijtimoiy, siyosiy, falsafiy vazifalar yuklatilgan asarlar kam uchraydi. Holbuki, "70-80- yillarning eng sara she'riy namunalari ko'p vazifani bajaruvchi, ko'p funksiyali she'rlar " bo'lgan. Bunday she'rlarda

mantiqiy funksiya birlamchi ahamiyat kasb etgani uchun ham ular badiiy ifoda, bayon tarzi, mavzu jihatdan bir xillashib qolgan. Ko'pfunksiyalik majburiyatidan xoli bo'lgan Halima Xudoyberdiyeva she'riyati an'analar ta'siridan chetda qolmadi. Ayni vaqtda, bu she'riyatda mumtoz poeziyada ko'p qo'llanilgan timsol va tamsillarga o'ziga xos yondashuv yetakchilik qiladi.

Halima Xudoyberdiyeva she'riyatida ramzlar tili bilan so'ylash biror so'z yoki so'z birikmasini ko'chma ma'noda qo'llash, aniq predmetga shartli belgi yuklashdan ko'ra, tagdor ramziylik imkoniyatlaridan foydalanishga ko'proq e'tibor beriladi. Shoira olam va odam, ruhiyatning obyektiv borliqqa munosabatini ifodalash, siyratdagi kechinmalarni badiiy tasvirlashni mohirona amalga oshiradi.

Balki men sen deb ham o'lmasman,

Hech kinga ishonmas bisotim.

Men seni baholay bilmasman,

Sen mening hayotim, hayotim!

She'riyatda ruh manzarasini musavvirona bera olish badiiy izlanish samarasi sifatida baland qadrlanadi. Uning she'riy so'zida istioralar, majozlar ichida ko'ngilning oniy kechinmalari- tebranishlar, titroqlar namoyon bo'ladi.

Istamam, hayotni men chindan

Kitobda yo'qolsa imi-jim.

Sarg'aymay varaqlar ichinda

Kitobdan chiqadi hayotim.

Men seni kitobga yozdim-u...

deydi Halima Xudoyberdiyeva. Bu shunchaki so'z o'yini emas. Yoki, shoir qismatiga aytilgan chiroyli, obrazli ta'rif emas. Bu asl shoirning peshonasiga bitilgan yozuq, uni shoirlik martabasiga ko'targan shaxslik qismati.

Halima Xudoyberdiyeva she'rlarini, aksar badiiy asarlarni o'qigan misoli, ko'ngil ochar yoki ko'ngil yozar mashg'ulot sifatida qo'lga olib bo'lmaydi. Shoira she'rlari bilan oshno tutinish, suhbatlashish, dardlashishning o'zi ham kifoya emas. Shoira sevib, yonib, kuyib ko'ngil kitobini ochar ekan, siz ham shoira she'riyatining tuyg'ular qozonida qaynab, qovrilib, alanga olib kechinmalar olamiga kirib borasiz. Girdibod hislar, talotum tafakkur to'lqinlarida beixtiyor quloch yozib yuborasiz. Shoira she'rlari hech qachon va qanday holatda ham sizni befarq va beparvo qoldirmaydi. Chinakam, she'riyatning sehri-jodusi, aslida, shunaqa bo'ladi. Bu, asl she'r satrlaridan yuraklarga silqib oqqan hayotga muhabbat titroqlari, muhabbatga sadoqat g'alayonlari, muhabbatga hiyonat nafratlari. Bir so'z bilan aytganda " ijud bu eng avvalo tuyg'u, tuyg'uni esa

abadiy nazorat qilish mumkin emas” ligi Halima Xudoyberdiyeva ijodida anglashiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бахтин М.М. Литературно – критические статси. М., 1968. С. 122
2. Murtazo Qarshiboy. O’nglanmagan taqdir talqini.-Toshkent: “Kamalak”, 1995, 68-bet.
3. Jorj Oruell. Adabiyot va totalitarizm// “O’z AS”, 1996, 16 avgust.